

## MAKTABGACHA TA'LIM TASHKILOTI DA KATTA GURUHLARGA XORIJIY TIL O'RGATISHNING ZAMONAVIY ILG'OR TEXNOLOGIYALARI

**Durdona Hakimova**

MTTDMQTMOI tayanch doktoranti

<https://doi.org/10.5281/zenodo.7331889>

*Annotatsiya.* Ushbu maqola maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruh bolalariga xorijiy til o'rgatish jarayonida pedagog hodimning qo'llaydigan turli xil metod va texnologiyalari bahsi haqida bo'lib, u ta'lim mobaynida juda kerakli qo'llanma bo'lib xizmat qiladi. Maqoladagi ilgari surilgn fikrlar xorijiy til o'qitish jarayonini sezilarli darajada yengillashtiradi.

**Kalit so'zlar:** Finlyandiya ta'lim tizimi, "Shoh asar", yaratuvchanlik mahorati.

## СОВРЕМЕННЫЕ ПЕРЕДОВЫЕ ТЕХНОЛОГИИ ОБУЧЕНИЯ ИНОСТРАННОМУ ЯЗЫКУ БОЛЬШИХ ГРУПП В ДОШКОЛЬНОЙ ОБРАЗОВАТЕЛЬНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ

*Аннотация.* В данной статье речь идет об обсуждении различных методов и технологий, используемых педагогом в процессе обучения иностранному языку большой группы детей дошкольной образовательной организации, что служит очень необходимым ориентиром в процессе обучения. Представленные в статье идеи значительно облегчат процесс обучения иностранному языку.

**Ключевые слова:** Финская система образования, «Шедевр», творчество.

## MODERN ADVANCED TECHNOLOGIES OF TEACHING A FOREIGN LANGUAGE TO A LARGE GROUPS IN A PRESCHOOL EDUCATIONAL ORGANIZATION

*Abstract.* This article is about the discussion of various methods and technologies used by the pedagogue in the process of teaching a foreign language to a large group of children of a preschool educational organization which serves as a very necessary guide during education. The ideas presented in the article will significantly ease the process of foreign language teaching.

**Keywords:** Finnish education system, "Masterpiece", creativity.

### KIRISH

Hozirgi davrda xorijiy tilni bilish ta'lim yo'nalishlarining ajralmas qismlaridan biri bo'lib kelmoqda. Ushbu ko'nikma ayni damda maktabgacha ta'lim jarayonini ham chetlab o'tmadi, albatta. Yosh o'rganuvchilarga ta'lim berish davomida xorijiy tilni o'rgatish ahamiyati sezilarli darajada yuksalib bormoqda. Buni dinshunos olim, tarix fanlari nomzodi, katta o'qituvchi Natalya Kireeva "Yoki biz hayotga, yoki imtixonlarga tayyorgarlik ko'ramiz. Birinchisini tanlaymiz", deya ta'kidlab o'tgan.

### TADQIQOT MATERIALLARI VA METODOLOGIYASI

Yaqin orada u mahalliy ta'lim tizimi va uning prinsiplari haqida nutq so'zlab o'tdi va o'z nutqida nima uchun Finlyandiya ta'limi dunyodagi eng yetakchi bilimlardan biri deb tan olinishi haqida o'z fikrini bayon qildi. Bugungi kunda maktabgacha ta'limga diqqatni qaratish, davlatning ijtimoiy, iqtisodiy va ma'naviy jihatdan rivojlantirish demakdir.

### TADQIQOT NATIJALARI

Finlyandiya ta'lim tizimidagi qiziqarli ma'lumotlar. Shuni ham ta'kidlab o'tish joizki, maktabgacha ta'lim tashkilotida katta guruhlar uchun til o'qitish strategiyalarining ushbu ro'yhat o'qituvchi sifatida takomillashish uchun juda qulay imkoniyat tug'diradi.

## MUHOKAMA

**1.Ovozni tanib olish va moslashtirish usuli.** Bu usulda qattiq qog'ozdan kesilgan bir nechta katta harflar hamda ushbu harflar bilan boshlanuvchi bir qancha kichik, lekin unchalik yirik bo'lmagan narsalar kerak bo'ladi. Misol uchun, agar tanlangan harflar M va K bo'lib, rasmda mushuk va fil bo'lsa, bolaga mushuk chiqaradigan ovozni talaffuz qilishdan boshlash kerak. So'ngra bolani aynan shu tovush bilan boshlanuvchi narsani topishga undab, topilgan buyumni harf ustiga yopishtirish kerak. Bu usul til o'rganuvchi bolalar uchun eng sevimli mashg'ulotlardan biri bo'lib, ularning "Shox asar"larini yaratishda juda qulay hisoblanadi.

**2.Belgilar va rasmlar bilan ishlash usuli.** Har kungi yodlanishi kerak bo'lgan so'zlarini targ'ib qilishning ilg'or usullaridan biridir. Touchtime Internationalning direktori doctor Elyan Fogel Shneydarning so'zlariga ko'ra: "Bolalarga umumiy brendalar va belgilarga og'zaki yorliq qo'yishdir". Professor rasmdan so'zga tarjima qilish usuli tilni rivojlantirishga ulkan hissa qo'shishini ta'kidlaydi. Ya'ni bu katta guruh bolalarining yangi tillarni tez va oson ozlashtirishlari uchun juda katta ko'makchi bo'la oladi.

**3. O'z faoliyatini o'rganuvchilarga moslashtirish usuli.** Maktabgacha ta'lim tashkilotida yodlangan o'qituvchilar uslubiy qo'llanmasiga yoki odatit darslarga qaytish oson bolishi mumkin. Ammo ba'zi o'rganuvchilar uchun bu qiyinchilik tug'dirishi mumkin. Gretzingerning aytishicha, bolalar an'anaviy bo'lmagan uy sharoitidagi bolalarga nisbatan sezgirroq bo'lishlari kerak. Katta guruh bolalariga o'z oilalari rasmlarini chizishlarini so'rashdan oldin bir necha marta o'ylab ko'rish - asrab olingan bola yoki ota-onadan ajralgan farzand qanday his qilishi mumkinligi va boshqa bolalar qanday munosabatda bo'lishlari haqida o'ylab ko'rish kerak. Bolada hijolat hissini uyg'otish kerak emas. Bunda pedagog o'z yaratuvchanligini davom ettirishi kerak.

**4. Tabiat dunyosi bilan o'rganish usuli.** Katta guruh bolalari darslarni tabiat qo'ynida o'zlashtirishga juda moyil bo'ladilar. Odatda, ularni hovli bog' dunyosi bilan tanishtirish ajoyib usullardan bo'lishi mumkin. Ushbu yo'l orqali stressni yengillashtirishga va nozik vosita mahoratini oshirishga erishish mumkin.

## XULOSA

Xulosa o'rnida shuni aytish joizki, maktabgacha ta'lim tashkiloti katta guruh bolalarining xorijiy tilni mukammal o'zlashtirishlarida pedagog xodimlarning o'rni, ularning dars jarayonida qo'llaydigan ilg'or texnologiyalari muhim o'rin tutadi. Bu orqali bolalarga xorijiy til ko'nikmalarini singdirib borish kelajakda ularning yetuk kadr bo'lib yetishishlari uchun juda ahamiyatli hisoblanadi.

## REFERENCES

1. D.R.Babayeva. Nutq o'zlash nazariyasi va metodikasi. Darslik. – T.: “Barkamol fayz media”, 2018, 98b. – 432B.
2. Maktabgacha ta'lim muassasalari tarbiyalanuvchilari va boshlang'ich maktab o'quvchilariga chet tilini o'rgatishda o'yinlar. Baxramova M.D. Tuzuvchi: Baxramova M.D. ,- T. 2016
3. Early childhood education in English for speakers of other languages by ViAdam, Bob and Morris Paul (1997) the English curriculum in the People's Republic of China, comparative education.
4. <https://raising children.net.au/newborns//playlearning/play-ideas/why-play-is-important>
5. <https://www.britishcouncil.org/voices-magazine/how-young-children-learn-english-through-play>